

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA - MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYa INSTITUTI
YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYaSI FAKUL TETI

Himoyaga ruxsat etildi
fakul tet dekani, dotsent
_____U.Meliboyev
« ____ » _____ 2016 y.

Kafedra mudiri, dotsent
_____X.Parpiyev
« ____ » _____ 2016 y.

**5320900 -"Yengil sanoat mahsulotlarini kontsruktsiyasini ishlash va
texnologiyasi" (to`qimachilik sanoati)
bakalavriat ta`lim yo`nalishi bo`yicha bitiruvchi**

**Omonov Axrorjon Abduraxim o`g`lining
“PAPFEN” “korxonasida kompakt ip asosida pishitilgan ip
ishlab chiqarish texnologiyasini
joriy etish mavzusidagi**

BITIRUV MALAKA ISHI

Bitiruvchi:

A. Omonov

Rahbar :

B.S.Mirzabayev

Maslahatchilar:

B.S.Mirzabayev

A.Akromov

NAMANGAN 2016 YIL.

MUNDARIJA

Kirish	3
1.Kompakt ip va pishitilgan iplar tayyorlash texnologiyasini takomillashtirilishi	7
1.1.Kompakt iplar ishlab chiqarish muammolari	7
1.2. Iplarni pishitishga tayyorlash texnika va texnologiyasi	9
1.3. Pishitilgan iplar tayyorlash texnika va texnologiyasini takomillashtirilishi	12
2. Korxonani modernizatsiyalash muammolari va yechimlari	15
2.1.“PopFEN” korxonasida joriy etilgan texnika va texnologiya	15
2.2.Korxona uchun to`qimachilik mahsulotlari assortimenti	16
2.3.Ipning xossalarini loyihalash	18
2.4.Yigirish tizimini asoslash	23
3. Yigirish rejasini tuzish	36
3.1. Yigirish mahsulotlarining chiziqli zichligi va cho`zishni asoslash	36
3.2.Yarim tayyor mahsulotlarni pishitish darajasini hisoblash	38
3.3.Mashinalarni chiqaruvchi a`zolarini tezliklarini qabul qilish va asoslash	39
3.4.Mashinalarning nazariy ish unumdorligini aniqlash	41
3.5. Mashinalarning foydali vaqt koefitsenti va ishlash koefitsentlarini asoslash	42
3.6. Mashinalarning unumdorlik normasi va hisobiy unumdorliklari	43
3.7.Ip, yarim tayyor mahsulot va chiqindilarni aralashmadan chiqish miqdorlarini aniqlash	44
3.8. O`timlar bo`yicha soatli topshiriqlarni hisoblash va taqsimlash	47
3.9. Jihozlar sonini aniqlash	49
3.10. Texnologik jihozlardan olinadigan yarimmahsulotlarning o`lchamlari va massalarini tanlash	50
3.11. Yigirish rejasini qayta hisoblash	52
4. Yigiruv tsexlaridan chiqayotgan changlarni tozalashda turli filtrlardan foydalanish	58
5. Pap-fen korxonasining tashkiliy- iqtisodiy ko`rsatkichlari hisobi	64
5.1. Korxonada ishlab chiqarish dasturi	64
5.2. Xom ashyo balansi tuzish	67
5.3. Tugallanmagan ishlab chiqarish	67
5.4.Korxonada elektr energiya sarfi	73
Xulosa va tavsiyalar	77
Adabiyotlar	79

KIRISH

Amalda faoliyat yuritayotgan korxonalarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda modernizatsiya qilish, yangi assortimentlar yaratish alohida o`rin tutadi. Dunyo to`qimachilik sanoatini rivojlanishiga juda katta e`tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy yo`nalish mahsulot turini ko`paytirish va uning sifatini iste`mol talablari darajasida bo`lishini ta`minlash bo`lib qolmoqda. Aynan ushbu yo`nalishda O`zbekiston Respublikasining to`qimachilik sanoatini rivojlanishi amalda jadal bormoqda. Bunga so`nggi yillarda qurilgan yangi va qo`shma korxonalar soni, jalb etilgan mablag` va investitsiya miqdorini, sanoat ishlab chiqarishini o`sishini ko`rsatish mumkin. Xom ashyo turiga boy respublikada bu borada hali qilinishi lozim bo`lgan ishlar salmog`i hali katta. Birinchi navbatda paxta tolasini qayta ishlash ulushini oshirish, jahon andozasi talablariga mos ip va ip gazlamalar ishlab chiqarishni ko`paytirish vazifalari hal etilmoqda.

Ilmiy texnik taraqqiyot va yutuqlarga asoslanib tabiiy va kimyoviy tolalarni yigirishning zamonaviy, jaxon andozalari talablariga javob beradigan texnologik jixozlarning tuzilishi, imkoniyatlari, takomillashtirish yo`nalishlari, ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulot sifatini ta`minlash, nazorat qilishda yangi texnikani joriy etish, uning samaradorligini belgilash asosiy vazifadir.

Rivojlanish tobora jadallashib borayotgan davrda to`qimachilik sanoatida ilmiy amaliy jixatdan asoslangan, ishlab chiqarishga joriy etilish ko`zda tutilgan, yangi texnika va texnologik yechimlar, avval ma`lumot berilmagan jixozlar va jarayonlarni o`rganish asosida mukammal tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni joriy etishni sanoat xodimlari oldingi asosiy maqsad hisoblanadi.

Amaldagi korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish muhim vazifalar jumlasiga kiradi. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning

asosiy tarmoqlari, eksportga yo`naltirilgan va mahalliy lashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.[1]

PAP-FEN O`zbek-turk qo`shma korxonasi yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati bo`lib, u O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1996 yil 27 sentyabrdagi 37-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Korxona 1999 yil 1 yanvardan o`z ish faoliyatini boshlagan.

Fabrikaning ishchi loyihasida N_e30 bo`lgan trikotaj sanoati uchun mo`ljallangan qayta tarash ipini ishlab chiqarishga mo`ljallangan. PAP-FEN qo`shma korxonasi turli assortimentdagi iplarni karda va qayta tarash tizimida halqali yigirish usulida ishlab chiqaradi: N_e30 qayta tarash ipi, N_e 36 qayta tarash ipi, N_e 24 qayta tarash ipi, N_e 30 karda ipi, N_e 20 karda ipi.

Hozirgi kunga kelib korxonada N 40 qayta tarash ipini ham ishlab chiqarish yo`lga qo`yildi. Korxona quvvati yiliga 3840 tonna tayyor kalava ip mahsuloti. Xom ashyo sifatida bu yerda asosan 4-I paxta tolasi ishlatiladi. Fabrikada jahon andozalari talablariga javob beradigan Germaniya davlatining Trutchler, Shlyafxorst, Grossenxayner va CSM firmalarida ishlab chiqarilgan dastgohlar o`rnatilgan. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini nazorat qilib borish korxonada maxsus laboratoriya mavjud bo`lib, u yerdagi sinov asbob-uskunalarini Yaponiya, Italiya va Germaniyada ishlab chiqarilgan. Korxonada ishlab chiqarilgan kalava iplar asosan eksport qilinadi.

Yangi yigirish korxonalarini loyihalash va qurish, mavjud korxonalarni qayta jixozlashning asosi jihozlar va mashinalarning yuqori unmdorligini, xom ashyodan unumli foydalanishni, yuqori sifatli ip yigirishni ta`minlaydigan ilg`or texnika va texnologiyani joriy etishdan iboratdir.

«Bizning eng ustuvor vazifamiz – bu tarkibiy o`zgarishlar siyosatini olib borish, sanoatni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish hisobidan iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishdan iborat».

Davlatimiz rahbari o'z nutqida ayni shu maqsadda Namangan viloyatining sanoat salohiyati va infratuzilmasini keskin rivojlantirish bo'yicha 2016-2019-yillarga mo'ljallangan maxsus dastur ustida boshlangan ishlar o'z yakuniga yetayotganini ma'lum qilib, keng ko'lamli bu dastur haqida to'xtalib o'tdi.[2]

Mazkur dastur 5 ta asosiy yo'nalishdan iborat bo'lib, birinchi yo'nalish Namangan viloyatida yangi sanoat obyektlarini barpo etishga qaratilgan 16 ta yirik investitsiya loyihasini o'z ichiga oladi. Bu haqda gapirganda, To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasini bunyod etish loyihasi haqida alohida so'z yuritish o'rinlidir. Birinchi bosqichda, ya'ni, 2017-yilda har biri 450 megavatt quvvatga ega ikkita eng zamonaviy bug'-gaz turbinasini ishga tushirish bo'yicha bugungi kunda jadal ish olib borilmoqda. Ikkinchi bosqichda, ya'ni, 2020-yilda yana ikkita ana shunday turbinani ishga tushirish ko'zda tutilmoqda.

Ana shu ulkan loyihalarni amalga oshirish hisobidan biz nafaqat Namangan viloyati, balki butun Farg'ona vodiysining iqtisodiyoti hamda aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish, shu asosda yangi-yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Dasturning ikkinchi yo'nalishi viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha 25 ta investitsiya loyihasini qamrab oladi. Ularning orasida Namangan shahridagi "Elektr qurilmalari" aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish quvvatini oshirishga qaratilgan loyiha muhim o'rin tutadi. Shu asnoda metall konstruksiyalar va quyi voltli elektr asbob-uskunalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.[2]

Uchinchi yo'nalish – mahalliy hokimiyat idoralari va tadbirkorlik tuzilmalarining sanoat salohiyatini rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha tashabbuslari asosida tuzilgan bo'lib, unda 177 ta loyiha o'rin olgan. Ularning orasida Uychi tumanida xorijiy investorlar bilan birgalikda tashkil etiladigan

ipak-trikotaj mahsulotlar korxonasi, Namangan shahridagi “Kamol-medfarm” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mahalliy shifobaxsh o’simliklardan dori-darmon va ineksiya vositalari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, “FT tekstil grup” mas’uliyati cheklangan jamiyatida esa paxta xomashyosidan ip-kalava va tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqa istiqbolli loyihalar diqqatga sazovordir.

Dasturning yana bir muhim yo‘nalishi – muhandislik kommunikatsiyalari va ishlab chiqarish infratuzilmalarini qurishga doir bir qator loyihalardan tashkil topgan. Shular qatorida Pop tumanida elektrlashtirilgan “Angren – Pop” temir yo‘li podstantsiyalarini elektr bilan ta’minlaydigan inshootlarni barpo etish ko‘zda tutilmoqda.[2]


Bu o‘rinda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o‘tish bo‘yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarini amalga oshirishni tezlashtirish vazifasi qo‘yilmoqda. O‘z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo‘lishini ta’minlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarishda korxonaning qurollanganlik darajasi va undagi jihozlarning texnik holati muhim hisoblanadi. Ip sifati va iplarni turi to‘qimachilik mahsulotlari assortimentini belgilaydi. Yangi turdagi ishlab chiqarishni yuzaga keltirish uchun ushbu malaka ishida korxonani zamonaviy texnologiya asosida qayta qurollantirish texnologiyasini loyihalash vazifasi bajarilgan.

1.Kompakt ip va pishitilgan iplar tayyorlash texnologiyasini takomillashtirilishi

1.1.Kompakt iplar ishlab chiqarish muammolari.

Iplarni yigirishda uni tashqi sifati ko`rinishi, tuklilik va sillilik darajasi katta ahamiyatga ega. Ipni silliq va tukli darajasini kamaytirish borasidagi izlanishlari asosida Rieter firmasi K 44 modeldagi yigirish mashinasini yaratdi. 1-rasmda cho`zish asbobi va unda michkani chiqib ipga aylantirish jarayoni tasvirlangan. Cho`zish asbobining asosiy farqi chiqaruvchi tsilindr sirti perforatsiyalangan qoplamali bo`lib undan havo so`rib olinadi. Havoni so`rilishi natijasida va maxsus yo`naltirgichlarni ta`sirida michka chetlaridagi uchlari chiqib turgan tolalar o`rtaga tortiladi. Natijada ularni pishitish jarayonida ipning ichki qismida qolishi ta`minlanadi.[3]



1-rasm. Rieter firmasining K 44 modeldagi yigirish mashinasini cho`zish asbobi

So`nggi yillarda O`zbekiston to`qimachilik korxonalariga yevropaning bir qator ilg`or firmalarida ishlab chiqarilgan serunum yigiruv mashinalari o`rnatilmoqda. Shunday takomillashgan yigiruv mashinalarining kirib kelishi ularning cheklangan texnik imkoniyatlarini yanada yuqori bo`lishi mumkinligini ko`rsatdi. Shu bilan birga ayrim nazariy tushunchalarni, xulosalarni o`zgarishiga olib keldi.

Ipning yuzada chiqib turgan tolalarni uchlari, halqachalar ipda tuklilik hosil qiladi. Ipda tukllarning soni bilan birga uning uzunligi ham muhim ahamiyatga ega. Ipda tola uchlari oz miqdorda chiqib tursa u deyarli bilinmaydi, tukllarni uzunligi kattaroq bo`lsa ipni yuzasida sezilarli ko`rinib qoladi.

Tuklilik ipni yigirish usuliga, tolalarni to`g`rilanish darajasi va paralellashganiga, buramlar soniga, ip chiziqli zichligiga, tola turi va boshqa omillarga bog`liqdir. Masalan, halqali usulda yigirilgan ip bilan (bir xil chiziqli zichlikdagi) pnevmomexanik usulda yigirilgan ipning tukliliigi har xil bo`ladi, ya`ni pnevmomexanik usuldagi ipda tuklar soni kamroq bo`ladi [4].

Ipning chiziqli zichligi, buramlar soni ortishi bilan ipdagi tuklilik ko`rsatgichi kamaya boshlaydi.

Ipning tukliliigi ip struktura xarakteristikalariga kiruvchi muhim ko`rsatgichlardan biri hisoblanadi. Ipni nima maqsada ishlatilishiga qarab uning roli o`zgaradi. Mas.: tikuv iplari, guli gazlamalar uchun tuklar soni minimal bo`lgani ma`qul. Yoki tukli mahsulotlar olishda esa tuklar soni va uzunligi ko`proq bo`lgani maqsadga muvofiqdir.

Ipning tuklilik ko`rsatgichi sifatida quyidagilar ishlatiladi: bir birlik uzunlikka (odatda 1 m) to`g`ri keluvchi tuklar soni va tuklarning o`rtacha uzunligi-l mm bo`lgan tuklarning umumiy yuzasi. Birlik uzunlikka to`g`ri keluvchi tuklar soni ko`p ishlatiladigan ko`rsatgich bo`lib, bu ko`rsatgich tuklarning zich joylashganligidan dalolat beradi.

1.2. Iplarni pishitishga tayyorlash texnika va texnologiyasi

Sifatli pishitilgan ip olish uchun yigirish mashinalaridan olingan iplarni pishitishga tayyorlash lozim. Pishitishga tayyorlashdan maqsad, yakka iplarni bir xil taranglikda bo'lishiga erishish, ta'minlanadigan o'ramadagi ipni uzunligini oshirish, undagi nuqsonlarni yo'qotishdir. Ipni pishitishga tayyorlashni ikki xil usuli mavjud: bir va ikki o'timli.

Yakka ipni bir o'timli usulda pishitishga tayyorlashda yigiruv mashinasidan olingan naychalardagi iplarni bobinalarga qayta o'rash yoki birdaniga zarur sondagi yakka iplarni qo'shib o'raladi. Qayta o'rash o'rash mashinalari yoki avtomatlarida amalga oshiriladi. Qo'shib o'rash yengil yoki og'ir tipdagi qo'shib o'rash mashinalarida bajariladi.

Bir o'timli usulni har ikkala varianti ham sanoatda qo'llanilib kelinayotgan usullar bo'lib, ularni qaysi birini tanlash yoki qo'llash eng avvalo pishitish mashinasining turiga hamda pishitilgan ipni tarkibidagi yakka iplar soniga bog'liq. Zamonaviy pishitish mashinalari qatorida qo'shburam beruvchi mashinalarda bir yoki ikkita bobinadagi iplarni bir xil taranglikda qo'shib o'ramasdan pishitish mumkin. Ushbu turkumdagi mashinalar odatda tsilindr shaklidagi, o'lchamlari uncha katta bo'lmagan bobinalarni qayta ishlashga mo'ljallangan. Shuning uchun iplarni qayta o'rash mashina va avtomatlarida olinadigan bobinalarni o'lchamlarini pishitish mashinasining imkoniyatlariga qarab belgilanadi. [5]

Boshqa turdagi pishitish mashinalarida ham yakka iplar o'ralgan bobinalarni maxsus ta'minlovchi romlarga o'rnatib, zarur sondagi iplar bitta pishitish qurilmasiga uzatilish amaliyotidan foydalanish mumkin. Biroq, bunday texnologiya keng qo'llanilmaydi.

Bir bosqichli usulda iplarni qo'shib o'rashda bir nechta naychalardagi iplarni birdaniga qo'shib ularni bir xil taranglikda bitta bobinaga o'raladi. Ikki o'timli

usulda esa yigiruv mashinasidan olingan naychalardagi yakka iplarni avval o'rash mashinalari yoki avtomatlarida qayta o'raladi, so'ngra qo'shib o'rash mashinalarida bir xil taranglikda qo'shib o'raladi. Bu usul ipni katta tezlikda qayta o'rovchi mashinalar va avtomatlarining to'qimachilik sanoatiga kirib kelishi tufayli keng tarqalgan. Bu usulda tayyorlangan pishitilgan ipning barcha sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi isbotlangan.

Shunday qilib, iplarni pishitishga tayyorlash asosan ikkita bosqichni: qayta o'rash va qo'shib o'rashdan iborat. Har ikki bosqich alohida texnologik o'timlar hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'rash mashinalarining turli rusumlari mavjud. Texnika taraqqiyoti to'qimachilik sanoati korxonalarida o'rash mashinalari o'rniga o'rash avtomatlaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish imkonini bermoqda. O'rash avtomatlarida bir qator jarayonlar va vazifalar avtomatik tarzda bajariladi.

"Schlafhorst" firmasi iplarni uchlarini sifatli ulash uchun «Splayser» texnologiyasini qo'llay boshladi. Texnologiyaning mohiyati iplarni uchlarini havo yordamida titish va ularni ustma-ust qo'yib pishitishga asoslanadi. Shuning uchun ushbu usulni tugunsiz ulash deb yuritiladi. [6]

Iplarni qo'shib o'rashda ularning sonidan qat'iy nazar bir xil taranglikda o'ralishi zarur. uzilish kuchi


Bir xil taranglikda qo'shib o'ralgan iplardan sifatli pishitilgan ip olish mumkin.

Iplarni pishitishga tayyorladi Italiyaning FADIS rusumli qo'shish mashinasidan foydalanilmoqda. Mashina kompyuterlashtirilgan bo'lib, unda o'rash tezligi hamda o'ram uzunligi avtomatik boshqariladi, uzilishlar va texnik nosozliklar vaqtida mashina avtomatik tarzda to'xtaydi.

Taranglikni sozlovchi moslama bir vaqtning o'zida ipni o'yg'on va ingichka, tuguncha xosil bo'lgan qismida mashinani avtomatik to'xtatadi hamda ipdagi

nuqsonlarni (neps) tozalaydi. Mashina uchtagacha yakka yoki qo'shilgan iplarni qo'shib o'rash imkoniyatiga ega.

Xitoy Xalq Respublikasining "DONXINT" firmasining DX321G rusumli jixozlari hozirgi kunda tabiiy ipak ipini, paxta tolasidan olingan yakka iplarni, kimyoviy shtapel tolalardan yigirilgan yakka iplarni va kimyoviy kompleks iplarni bir nechtasini qo'shib pishitishga tayyorlash jarayonidagi jihozlarni ishlab chiqarmoqda



2-rasm. FADIS (Italiya) rusumli qayta o'rash mashinasi

Bu jihozlarda qo'shilayotgan iplar avtomatik ravishda nazorat qilinadi. Bundan tashqari qo'shilayotgan yakka iplar tarangligini bir xil qilib beruvchi moslamalar bilan jihozlangan.

1.3. Pishitilgan iplar tayyorlash texnika va texnologiyasini takomillashtirilishi

Iplarni pishitishning maqsadi ip mahsulotlarining belgilangan xossalarga ega bo'lishini, tashqi ko'rinishini va ma'lum barqaror tuzilishga ega bo'lishni ta'minlashdir. Iplarni pishitish jarayonining mohiyati esa bir necha iplarni qo'shib ularni birga eshish va o'rashdan iborat.

Paxta, kimyoviy tolalar va ularni aralashmasidan yigirilgan iplarni pishitish turli mashinalarda amalga oshiriladi. Pishitish mashinalarini tuzilishi va pishitish jarayonini amalga oshiruvchi mexanizmlarining tuzilishiga ko'ra tasniflash mumkin.

Ayrim turdagi pishitish mashinalarida iplarni pishitish bilan bir qatorda qo'shimcha texnologik jarayonlar ham amalga oshiriladi. Bularga bir nechta iplarni qo'shish, pishitilgan ipda turli sifatlarni hosil qilish, namlash va mumlash.

Pishitish mashinalarining muhim belgilariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:[7]

- pishitish mexanizmining konstruksiyasi va o'rash usuliga ko'ra halqali, halqasiz, qalpoqli, tsentrafugali mashinalar;
- urchuqlarning joylashuviga ko'ra bir va ko'p qavatli;
- urchuq konstruksiyasiga ko'ra - bir buramli va qo'sh buram beruvchi urchuqli;
- ipni harakat yo'nalishiga ko'ra—ip pishitish mashinalarini ta'minlaydigan aylanayotgan o'ramadan chiquvchi, pishitilgan ipni pishituvchi moslamada aylanayotgan naychaga o'rash;
- urchuqlarni harakatlantirish usuliga ko'ra - yumshoq harakat uzatish (remen , shnur, tasma yordamida), harakatni uzatish tishli g'ildirak, chervyakli, friksion uzatishli va individual elektrodvigatelli;
- bajaradigan vazifasiga ko'ra -oddiy pishitish, iplarni qo'shib pishituvchi, shakldor iplarni pishituvchi va bir bosqichli mashinalar.

Pishitish mashinasi turini tanlash pishitiladigan ipning turiga, qanday maqsadda ishlatilishiga, o`rash usuli, o`rama shakli va tuzilishiga, mashinani ta`minlovchi va chiqariluvchi o`ramalar o`lchamlariga bog`liq.

Ip gazlama sanoatida mato va trikotaj buyumlari tayyorlash uchun ishlatiladigan pishitilgan iplarni halqali pishitish mashinalarida, yigirish pishitish mashinalarida, qo`shburam beruvchi urchuqli mashinalarda, qo`shib pishituvchi va pnevmomexanik pishitish mashinalarida ishlab chiqariladi. [8]

Halqali pishitish mashinalarda iplarni pishitish asosiy jarayondir. Bunday mashinalar vazifasiga ko`ra ikki xil bo`lib, yengil va og`ir tiplarga bo`linib ularda ipni quruq yoki hullab pishitiladi.

To`qimachilikda, trikotaj buyumlari, paypoqlar, to`rpardalar va kashtachilik iplari ishlab chiqarish uchun ikkitagina ipdan tashkil topgan pishitilgan iplarni quruq usulda yengil tipdagi halqali mashinalarda pishitiladi. Og`ir tipdagi halqali pishitish mashinalarida chefer, bel ting, velotred, kirza kabi texnik matolar, turli xil filtrlash matolarini, baliq ovlash to`rlarini, shina kordlari uchun iplarni pishitiladi. Tikuvchilik iplari, texnik matolar to`qishga iplarni ishlab chiqarish uchun yengil va og`ir tipdagi hullab pishituvchi mashinalar qo`llaniladi.[9]

Qo`sh buram berib pishitish mashinalarining afzalligi ularda bir marta aylanganda ipga ikkita buram beruvchi urchuqning qo`llanilishidadir. Bir nechta firmalar shunday mashinalarning turli rusumlarini yaratdilar.

Olmoniyaning «Fol kman» firmasi litsenziyasi bilan Chexiyada VTS, «Zaurer Al ma» firmasi litsenziyasi bilan Bolgariyada «Yantra» mashinasi va Italiyaning «Savio» firmasi tomonidan TDS mashinalari ishlab chiqarmoqdalar. Urchuqlari tik o`rnatilgan qo`shburam berib ipni pishitish mashinalari keng tarqalgan. Ularni ta`minlovchi qismlari magnit tizimi yordamida ipni mashinaga uzluksiz bir xil taranglikda uzatilishini nazorat etadi. Pishitish uchun iplarni maxsus yoki oddiy qo`shib o`rovchi mashinalarda tayyorlanishi mumkin. Pnevmmomexanik yigiruv

mashinasida tayyorlangan iplarni ham urchuqqa ustma-ust o`rnatib hech qanday qiyinchiliksiz pishitish jarayonini amalga oshirish mumkin.

Qo`shburam beruvchi urchuqli mashinalarda bobinadan ipni bo`sholib chiqishini qo`zg`aluvchan aylanma harakatlanuvchan ip o`tkazgichlar orqali amalga oshiriladi. Urchuq kanali ko`p bo`g`inli bo`lib ipni tarangligini pishitishdan avval rostlovchi moslama bilan jihozlangan.

Bobinadan katta tezlikda bo`sholib chiqayotgan ip katta diametrda ballon hosil qiladi. Bu ballon diametrini cheklash uchun ichki yuzasiga maxsus ishlov berilgan tsilindr shaklidagi moslama o`rnatilgan. Plastik metaldan tsilindr shaklida tayyorlangan separator yordamida ballonning aylanishidan hosil bo`lgan havo oqimi cheklanadi. Mashinada kechadigan texnologik jarayonlarni mexanik yoki elektromexanik usulda nazorat etuvchi va ip uzilishi bilan shu urchuqni to`xtatuvchi moslamalar qo`llaniladi.

2. KORXONANI MODERNIZATSIYA LASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

2.1. “PopFEN” korxonasida joriy etilgan texnika va texnologiya

“PopFEN” korxonasi soʻnggi 20 yil davomida birnecha assortimentdagi iplar ishlab chiqarib keldi. Hozirgi kunga kelib korxonada N 40 qayta tarash ipini ham ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi. Korxona quvvati yiliga 3840 tonna tayyor kalava ip mahsuloti. Xom ashyo sifatida bu yerda asosan 4-I paxta tolasi ishlatiladi. Korxonada Germaniya davlatining Trutchler, Shlyafxorst, Grossenxayner va CSM firmalarida ishlab chiqarilgan dastgohlar oʻrnatilgan. (1-jadval).

Odatda ip yigirish korxonalarida texnologik jihozlardan foydalanish muddati cheklangan. Ularni fizik yemirilishi, maʼnaviy eskirishi ishlab chiqariladigan mahsulot turi va sifatini cheklab qoʻyadi va iqtisodiy samarasi pasayib ketadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini nazorat qilib borish korxonada maxsus laboratoriya mavjud boʻlib, u yerdagi sinov asbob-uskunalarini Yaponiya, Italiya va Germaniyada ishlab chiqarilgan. Korxonada ishlab chiqarilgan kalava iplar asosan eksport qilinadi.

1-jadval

“PopFEN” korxonasida oʻrnatilgan jihozlar

№	Jixozlarning nomlari	Rusumi
1.	Avtomatik taʼminlovchi	BDT 019
2.	Elektron metall tutgich	EM 1200
3.	Aralashtiruvchi	AFC
4.	Tozalovchi mashina	ASTA
5.	Changdan tozalovchi mashina	CVT 4
6.	Tarash mashinasi	Dk 760

7.	Pilta qo`shish	TEKSTIMA 1578
8.	Qayta tarash	1534
9.	Piltalash mashinasi	TEKSTIMA
10.	Piliklash mashinasi	BF 224
11.	Yigirish mashinasi	2114 B
12.	Iplarni qayta o`rash avtomati	Autoconer 228

Ushbu texnologik jihozlar tozalash samaradorligi va yarimmahsulotni tekislash darajasi pasayib ketgan shuning uchun uni yangilash va korxonani iqtisodiy rivojlantirish loyahasini ishlab chiqish, joriy etish imkoniyatlarini aniqlash lozim.

2.2. Korxona uchun to`qimachilik mahsulotlari assortimenti

To`qimachilik sanoatida ip tushunchasi keng ma`noga ega bo`lib, uni birinchi navbatda ham tolalardan yigirilgan, ham tayyor yoki kimyoviy iplarga nisbatan ishlatiladi. Amalda barcha iplarni ishlab chiqarish usuliga ko`ra tolalardan yigirilgan va kimyoviy usulda tayyorlangan xillarga bo`linadi.

Tuzilishiga ko`ra esa iplarni birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratiladi. Birlamchi iplar hosil qilingandan so`ng to`g`ridan-to`g`ri mato tayyorlash uchun yuboriladi. Ularni yigirilgan, kimyoviy kompleks, monoiplar, qirqib tayyorlangan iplarga bo`linadi. Ikkilamchi iplar belgilangan tashqi ko`rinish va xususiyatlarga ega bo`lishi uchun bir nechta birlamchi iplarni qo`shib, so`ngra ularni birgalikda eshib-pishitib olinadi. [5,7]

Yigirilgan iplar xom ashyo tarkibiga ko`ra bir xil va aralashma iplariga bo`linadi. Biron turdagi tabiiy yoki kimyoviy tolalardan yigirilgan iplarni bir xil, turli tolalarni aralashmasidan yigirilgan iplarni esa aralashma iplar deb yuritiladi. Aralashma iplar tabiiy tolalardan birini biron turdagi kimyoviy tola bilan yoki turli kimyoviy tolalarni aralashtirishdan so`ng yigirib olinadi.

Iplarning fizik, mexanik va boshqa xossalari ko'plab ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Ulardan bir nechitasi asosiy xossalari sifatida belgilangan. Bular jumlasiga uzilish kuchi, nisbiy uzilish kuchi, uzilishdagi uzayishi, pishitilishi, tozaligi, nuqsonlar soni, notekisligi kiradi.

Hozirgi kunda tolalardan ip yigirishning bir nechta usullari mavjud bo'lib, ularni halqali va urchuqsiz usullarga bo'linadi. Urchuqsiz usullar o'z navbatida ipni hosil qilish va ipga buram berib pishitish jarayoning mohiyatiga qarab pnevmomexanik, pnevmatik, aerodinamik, gidravlik, elektrostatik, rotorli, friksion usullarga bo'linadi.[10]

Halqali usulda yarim tayyor mahsulot - pilik hosil qilinib undan cho'zish asbobi yordamida kerakli chiziqli zichlikgacha ingichkalashtirilib cho'zilgan piltachani urchuq, halqa va yugurdak yordamida pishitib ip hosil qilinadi.

Urchuqsiz usullarda yarim mahsulot asosan pilta hisoblanadi va uni kerakli chiziqli zichlikgacha ingichkalashtirish uchun tarovchi-diskretlovchi qurilmadan foydalaniladi. Ipni pishitish va o'rash turli konstruksiyadagi yigirish qurilmalarida amalga oshiriladi.

Halqali usulda ip yigirishni tezligi urchuqning tezligi bilan cheklab qo'yilgan bo'lsa, urchuqsiz usullarda yigirish qurilmalarini (rotorlar, kameralar) aylanish soni bir necha marta ortiq bo'ladi. Agarda zamonaviy yigirish mashinalarida urchuqlar bir minutda 25000 martagacha aylansa, yigirish kameralari 100000-150000 martagacha aylanishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, urchuqsiz usullarda ip yigirishni unumdorligi bir necha marta yuqori bo'ladi.

Biroq urchuqsiz usullarda tolalar tarovchi mexanizmida bir biridan ajratilib, so'ngra qo'shilganligi uchun ipni uzilish kuchi ancha (10-20%) kam bo'ldai. Shuning uchun urchuqli yoki halqali usullar nisbatan ko'proq qo'llaniladi.

Ushbu malaka ishida to'qimachilik sanoatida katta hajmda ishlab chiqariladigan trikotaj matolar uchun o'rta chiziqli zichlikdagi 18,5 teks X 2 kompakt

iplarni karda tizimida tayyorlash texnik va texnologik imkoniyatlari baholash va modernizatsiya asoslarini belgilash bosh vazifa etib belgilandi. Iplarni xossalariga qo'yilgan talablar 1-jadvalda keltiriladi.

2.3. Ipning xossalarini loyihalash

Trikotaj matolari uchun ishlab chiqariladigan iplar silliqligi va egiluvchanligi, tuklarni kamligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun bunday iplar alohida standart bo'yicha belgilangan xossalar va xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun korxonani modernizatsiyasi uchun 18,5 teks chiziqli zichlikdagi pishitilgan ip tanlab olindi. Ipning xossalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.[11]

2-jadval

Ipning fizik mexanik xossalari

Ipning chiziqli zichligi	Kondi-tsiyon chiz. zichlikni ruxsat etilgan farqi, %	Navi	Yakka ipni sinalganda				Pishi-tish koefftsienti	Chizikli zichlik bo`yicha variatsiya koef-ti
			Ipning nisbiy uzilish kuchi		Uzilish kuchi bo`yicha variatsiya koefftsienti	Sifat ko`r-satkichi		
			gs/teks	mN/teks				
18,5 teks X2 T _{RN} =37 teks	+1,5	birinchi	13,4	131,4	11,2	1,19	30,1	5,6
	-2,5	ikkinchi	11,0	117,9	14,4	0,70		
		uchinchi	10,2	100,0	16,2	0,63		
18,5	+2,0	birinchi	11,5	112,8	13,8	0,83	37,9	6,9
	-2,5	ikkinchi	10,6	104,0	16,2	0,66		
		uchinchi	9,8	96,1	18,8	0,52		

Xom ashyo tanlash va uni asoslash

Malaka ishida qabul qilingan ipning sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq ip yigiriladigan tolaning turi va aralashma tarkibi tanlanadi. Qo'yilgan talab darajasidagi ip yigirish uchun ishlatiladigan tolalar aralashmasi sortirovka deb yuritiladi. To'qimachilik mahsulotlarining aksari paxta tolasidan olinishini hisobga olgan holda ushbu turdagi aralashmalarni tanlash va ularni baholashga alohida to'xtalib o'tish joizdir.

Paxta tolalari Rst O'z 604-2001 ga muvofiq tiplar va saonat navlariga bo'linadi. Tolalar o'zining fizik texnik ko'rsatkichlari: shtapel vazn uzunligi, chiziqli zichligi va solishtirma uzilish kuchiga (I va II navlar) ko'ra to'qqizta tiplarga bo'linadi. Paxta tolasining tipi eng yomon ko'rsatkich bo'yicha aniqlanadi. 1a, 1b, 1, 2, 3 tipdagi paxta tolasini ingichka tolalari, 4-7 tipdagilari esa o'rtacha tolali navlarga kiradi.[12]

Yigirilishi rejalashtirilgan ip uchun quyidagi 3-jadvalda keltirilgan xom ashyo tavsiya etilgan.

3-jadval

Ip yigirish uchun tavsiya etilgan paxta tolalari aralashmasi

Nominal chiziqli zichlik, teks	Ipning nominal nomeri	Paxta tolasini aralashmasi	eslatma
18,5	54	4-I,4-II	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 18,5 teksli ip uchun 4-tip paxta tolasini tavsiya etilgan. Bitiruv malaka ishida 4 tipga mansub 108-F seleksiya navini qabul qilamiz. Ushbu tolalarning fizik-mexanik xossalari quyidagi 4-jadvalda keltirilgan. [13].

Paxta tolasining sifat ko'rsatkichlari

Paxta tolasini tipi	Seleksion navi	Terish usuli	Sanoat navi	Namlilik, %	Shtapel uzunlik, mm	Varifesiya keffitsienti	Pishish keffitsienti	Chiziqli zilik, mteks	Uzilish kuchi, sN	Nisbiy uzilish kuchi, sN/teks	Xas-cho'p miqdori, %
4	108-F	Ma-shi-na	I	5,5	31,6	-	2	179	4,4	24,6	2,6
			II	5,5	31,7	-	1,8	166	4	24,1	2,9

Tanlangan xom ashyoni to'g'riligini tekshirish

Ipning kutilgan sifatga ega bo'lishi bilan bir qatorda uning tan narxini ham to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yigirish korxonalarida rejalashtirilgan iplarni talab qilingan sifatda bo'lishini ta'minlash uchun birinchi navbatda toladan yigiriladigan ipning xossalarini nazariy yo'l bilan loyihalanadi. Buning uchun ipning nisbiy uzilish kuchini formulalar orqali hisoblash usuli ko'proq qo'llaniladi. Hisoblash tolalar aralashmasini to'g'ri tanlashni tezlatish bilan bir qatorda ko'p miqdordagi tolani saqlab qolishga imkon beradi.

Tanlangan tipaviy aralashmalar asosida paxta tolalaridan yigiriladigan ipning nisbiy uzilish kuchini professor A.N. Solov yov taklif etgan formulasi orqali aniqlanadi. Bu formula ip va tolaning muhim xossalari orasidagi bog'lanishni ko'rsatadi va quyidagi ko'rinishga ega:[8,10]

$$R = \frac{P_T}{T_T} \cdot \left(1 - 0,0375 \cdot H_0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{T_{III}}{T_T}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{L_T} \right) \cdot k \cdot \eta$$

bu yerda:

R_{ip} - ipning nisbiy uzilish kuchi, sN|teks; R_s - tolaning uzilish kuchi, sN; T_t - tolaning chiziqli zichligi, teks; No - ipning solishtirma notekisligi, (iahta tarash tizimi uchun $Hoq_{3,5} - 4,0$; karda yigirish tizimi uchun $Hoq_{4,5-5,0}$); T_{ip} - ipning chiziqli zichligi, teks.; L_{sht} - tolaning shtapel uzunligi, mm.; K - ipning pishitish jarayoniga tegishli koeffitsient. α_t , α_{kr} - amaliy va kritik pishitish koeffitsientlari farilaridan topiladi.; η - mashina va uskunalarning holatini ifodolovchi koeffitsient. (Normal xollarda $\eta-1$; yomon xolatda $\eta-0,85$; yaxshi holatda brlsa $\eta-1,1$ ga teng).

Kritik pishitish koeffitsientini aniqlashda prof. A.N.Solov yev ga binoan quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\alpha_{KP} = \frac{31,6}{100} \cdot \left[\frac{(1120 - 70 \cdot P_T) \cdot P_T}{L_{um}} + \frac{57,2}{\sqrt{T_{III}}} \right]$$

Ipning amaliy pishitish koeffitsientini uning turi va chiziqli zichligiga qarab keltirilgan tavsiyadan olinadi. So`ngra amaliy va kritik pishitish koeffitsientlari orasidagi farqga mos keluvchi K koeffitsienti jadvaldan aniqlanadi.

Ipning tan narxini kamaytiriш ma=садида И ва ИИ нав пахта толаларидан aralashmani tanlaymiz.

Aralashmadagi tolalarning xossalarini Sinitsin формуласидан фйдаланиб щисоблаймииз:

$$P_{ar} = P_1 \cdot \alpha_1 + P_2 \cdot \alpha_2;$$

$$T_{ar} = T_1 \cdot \alpha_1 + T_2 \cdot \alpha_2;$$

$$L_{ar} = L_1 \cdot \alpha_1 + L_2 \cdot \alpha_2.$$

Bu yerda P_1, T_1, L_1 – aralashmaga kiritilayotgan tolalar birinchi komponentini mos ravishda uzilish kuchi, chiziqli zichligi va shtapel uzunligi; P_2, T_2, L_2 – aralashmaga kiritilayotgan tolalar

birinchi komponentini mos ravishda uzilish kuchi, chiziqli zichligi va shtapel uzunligi;
 α_1 va α_2 – aralashmaga kiritilayotgan birinchi va ikkinchi komponent tolalarning

Uzilish kuchi

$$R = 4,4 \cdot 0,8 + 4,0 \cdot 0,2 = 4,32 \text{ sN}$$

Chiziqli zichlik

$$T = 179 \cdot 0,8 + 166 \cdot 0,2 = 176,4 \text{ mteks}$$

Shtapel uzunlik

$$L = 31,6 \cdot 0,8 + 31,7 \cdot 0,2 = 31,2 \text{ mm}$$

18,5 teks ip uchun

Kritik pishitish koeffitsienti

$$\alpha_{hp} = \frac{31,6}{100} \cdot \left[\frac{(1120 - 70 \cdot 4,32)4,32}{31,2} + \frac{57,2}{\sqrt{18,5}} \right] = 0,316(113,2 + 13,3) = 40$$

Amaliy pishitish koeffitsienti $\alpha_{\phi} = 37,9$ [13]

$K = 0,98$

$$R = \frac{4,32}{0,1764} \left(1 - 0,0375 \cdot 4,0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{18,5}{0,1764}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{31,2} \right) 0,98 \cdot 1 =$$

$$= 24,5 \cdot (1 - 0,15 - 0,259) \cdot 0,84 \cdot 0,98 \cdot 1 = 11,9 \text{ sN / teks.}$$

Pishitilgan ip 18.5 tes X 2 ipning nisbiy uzilish kuchi

$$P_p = 11,9 \cdot 1,2 = 14,28 \text{ sN / teks}$$

Shunday qilib, loyihada ko`rsatilgan ip uchun tanlangan xom ashyo tarkibi 4-I tipaviy sortirovkadan 80 foiz, 4-II sortirovkadan 20 foiz miqdorda aralashtirilganda ipning sifatiga qo`yilgan talablar qondiriladi.

Chunki hisoblangan natija yakka ipning nisbiy uzilish kuchi $R = 11,9 \text{ sN/teks} > R_T = 11,5 \text{ sN/teks}$ va pishitilgan ip uchun $R_p = 14,28 \text{ sN/teks} > R_T = 13,4 \text{ sN/teks}$, ya'ni standartdagi talabdan yuqori

2.4.Yigirish tizimini asoslash

Tolalardan ip hosil qilish ketma-ketligini yigirish tizimi deb atash qabul qilingan. Bunda yigirish tizimi tushunchasi faqat jarayonlar ketma-ketliginigina emas, balki texnologik jihozlar ro'yxatini yigirish korxonalarida qabul qilinish tartibini ham o'z ichiga oladi.

Tabiiy va kimyoviy tolalardan ip yigirishning quyidagi asosiy tizimlari mavjud: oddiy (kard), qayta tarash va apparat tizimlari. Bu tizimlar asosan ikkita belgilovchi alomatlari - tarash usuli va mahsulotni ingichkalashtirish usullari bilan farqlanadi. [14]

Oddiy yigirish tizimi bo'yicha o'rtacha chiziqli zichlikdagi iplar yigiriladi. Bunday iplar keng assortimentdagi ip gazlamalar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi.

Loyihada ko'rsatilgan chiziqli zichlikdagi ipni yigirish uchun oddiy tarash tizimini va pnevmomexanik usulni qabul qilamiz.

Ushbu tizim asosida Germaniyaning Truchlur va Shlafxorst firmalarining quyidagi jihozlarni qabul qilamiz (5-jadval). Ko'rsatilgan jihozlar o'zining avfzalliklari bilan, jumladan yuqori unumdorligi avtomatlashganligi va mahsulot sifatini yuqori bo'lishini ta'minlaydi.[8,15]

Atomatik ta'minlovchida paxta tolalarini tipi va naviga farab alohidag'alo-hida qo'yish imkoniyati aralashma tarkibi o'zgarganda va zarurat bo'lganda uning imkoniyatini yanada oshiradi. Aralashtirish jarayoni yaxshi borishi uchun integrallashgan aralashtiruvchi mashinalar qabul qilindi. Tolalarni tarashda serunum tarash mashinasi bilan bir qatorda tolalarni tarashga taqsimlashda bir xillikga erishish

oson bo`ladi. Pilatalash mashinalari esa birinchi o`timda oddiy, ikkinchi o`timda pilta chiziqli zichligini avtomatik ta`minlash qurilmasi o`rnatilgan mashina qabul qilindi. [3,6,15,16]

Ushbu tizim asosida quyidagi jixozlarni kabul kilaman (5-jadval)

5-jadval

Texnologik jihozlar

№	Jixozlarning nomlari	Korxonada	Loyihada
1.	Avtomatik ta`minlovchi	BDT 019	UNIfloc A 11
2.	qaytimlarni titish	-	B 25
3.	Yot aralashmalardan tozalovchi	EM 1200	A 48
4.	Dastlabki tozalovchi	-	UNIClean B 12
5.	Aralashtiruvchi	AFC	UNImix B 76
6.	Tozalovchi mashina	ASTA	UNIClean B 17
7.	Jamlab-ta`minlovchi	-	UNIstore A 79
8.	Kondensor	-	UNIstore A 79
9.	Changdan tozalovchi mashina	CVT 4	-
10.	Tarash mashinasi	Dk 760	C 70
11.	Pilta qo`shish	TEKSTIMA 1578	
12.	Qayta tarash	1534	
13.	Pitalash mashinasi	TEKSTIMA	SV D45 Q RSV-D45
14.	Piliklash mashinasi	BF 224	F 35
15.	Yigirish mashinasi	2114 B	ComforSpin® Machine K 45
16.	Iplarni qayta o`rash avtomati	Autoconer 228	Savio ORION EI
17.	qo`shib o`rash mashinasi	-	TUAN-BL
18.	Pishitish mashinasi	-	TDS

Ko'rsatilgan jihozlar uzining avzalliklari bilan, jumladan yuqori unumdorligi avtomatlashganligi va mahsulot sifatini yukori bo'lishini ta'minlaydi. Quyida jihozlarning texnik tavsiflari keltirilgan.

Kursatilgan jixozlar uzining avzalliklari bilan, jumladan yukori unumdorligi avtomatlashganligi va maxsulot sifatini yukori bulishini ta'minlaydi. Kuyida jixozlarning texnik tavsiflari keltirilgan.

Avtomatik toy titgichning texnik tavsifi

6-jadval

Ishlatiladigan tola uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	
birinchi nav tola uchun	1200
quyi navlvr uchun	600
Titilgan bulakcha og'irligi, mg	20 - 50
O'rnatilgan quvvat, KVT	11,5
Stavkaning uzunligi, m	7,2 – 47,2
Mashina uzunligi, mm	12913-52913
Mashinani kengligi, mm	5351 (6536
Balandligi, mm	2763
Mashina massasi, kg	3320

7-jadval

B 34 Titib ta'minlovchi mashina texnik tavsifi

Ishlatiladigan xom ashyo	paxta, kimyoviy tola va ularni aralashmasi
Tola uzunligi, mm	65 gacha

Unumdorligi, kg soat	600 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	2,85
Mashinani ishchi kengligi, mm	1200
Kamera hajmi, kg	25-40
Gabarit o'lchami: mm	
uzunligi	3250
(ta'minlovchi qurilma uzunligi)	3000; 4500; 6000; 7500; 9000
Balandligi	3000
Ventilyator quviri bilan	3500
Kengligi	1600

8-jadval

Qaytim va chiqindi titib-ta'minlovchi B 25

Ishlatiladigan xom ashyo	paxta, kimyoviy tola va ularni qaytimlari
Tola uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	60 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	3.15
Mashinani ishchi kengligi, mm	750
Gabarit o'lchami: mm	
uzunligi	5000
(ta'minlovchi qurilma uzunligi)	3000; 4500; 6000; 7500; 9000
Balandligi	2050
Kengligi	1150
Massasi, kg	1770

Tozalovchi UNIclean B12 mashinasini texnik tavsifi

Ishlatiladigan xom ashyo	paxta, kimyoviy tola
	va ularni aralashmasi
Tola uzunligi, mm	60 gacha
Unumdorligi, kg soat	1400 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	15,25
Mashinani ishchi kengligi, mm	1600
Gabarit o'lchami, mm uzunligi	2205
Balandligi	2000
Ventilyator quviri bilan	2500
Kengligi	1040
Mashina massasi, kg	1180

Aralashtiruvchi UNImix B72R mashinasini texnik tavsifi

Xom ashyo	paxta, kimyoviy tola, aralashma
Unumdorligi, kg soat	800 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	17,
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	7830
kengligi	1514
balandligi	4173
Og'irligi, kg	3850

Tola jamlagich va titib-ta`minlagich UNIstore A 79 R

Xom ashyo	paxta, kimyoviy tola, aralashma
Unumdorligi, kg/soat	1100 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	12,6
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	1526
kengligi	1514
balandligi	3981
Og'irligi, kg	1820

Aralashtiruvchi UNIblend A81 mashinasini texnik tavsifi

Xom ashyo	kimyoviy tolalar va aralashma
Unumdorligi, kg/soat	1000 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	24.7
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	11940
kengligi	1600
balandligi	4663
Og'irligi, kg	13690

Agregatda avtomatik toy tituvchi UNIfloc A11 dan chiqayotgan, titilgan tolalar dastlabki tozalovchi UNIClean B12 da yirik nuqsonlardan tozalangandan keyin aralashtiruvchi mashina UNImix B70 da aralashtiriladi. So'ngra tolalarni

mayin tozalovchi mashina UNIflex B60 da qayta tozalanadi va tarash mashinalariga taqsimlovchi tizimiga uzatiladi.

Rieter firmasining so'nggi yutuqlaridan biri bu C70 modeldagi yuqori unumdorlikga ega bo'lgan karda tarash mashinasidir. Mashinaning unumdorligi 280 kg/soat gacha bo'lib, shu kunlarda dunyoning turli hududlarida 2000 dan ortiq shunday mashinalardan foydalanilmoqda.

13-jadval

C70 modeldagi karda tarash mashinasidir texnik tavsifi

	Ishlatiladigan tola	paxta, kimyoviy tola
	Tolani uzunligi, mm	65 gacha
	Unumdorligi, kg soat	220 gacha
	Tosni diametri, mm	600 - 1000
	Tosni balandligi, mm	1000 - 1300
	Ishchi kengligi, mm	1500
	Gabarit o'lchami,mm	
	uzunligi	3325 (6181)
	kengligi	2380
	balandligi	3470
	Piltaning chiziqli zichligi, kteks	4-20
	Tolalar to'shamining massasi, gG'm	650-950
	O'rnatilgan quvvat, kVt	21.0-21.7
	Pilta chiqarish tezligi, mG'min	330 gacha

Piltalash mashinalari texnik tavsiflari

Ko`rsatkichlar	texnik tavsiflari	
	1-o'tim uchun	2-o'tim uchun
Mashina rusumi:	SB-D 45	RSB-D 45
Chiqarish qismi	1	1
Quvvati, kVt	11	11
Chiqaruv tezligi, mG'min	1100	1100
Qo'shish soni	6-8	6-8
Cho'zish	4,4-11,7	4.5-11.6
Idishni o'lchami, mm: kirishda chiqishda balandligi	500-1000 300-1000 900-1200	500-1000 300-1000 900-1200
Avtomatik chiqarish	-	Q
Rostlovchi	-	Q
Uzunligi, mm	10860	10860
Kengligi, mm	2460	2460
Piltaning chiziqli zichligi, kteks	1.25-7.0	1.25-7.0

F 35 Pilik mashinalarning texnik tavsiflari

	Urchuqlar soni	36-144
	Bitta sektsiyada	12
	O'rash balandligi, mm	400
	O'rash diametri, mm	175
	Urchuqni aylanishi, ayl/min	1500
	Pilikni chiziqli zichligi,	170-1450

	Pilikni nomeri	0,7-5,9
	Umumiy cho'zish	4-20
	Chiqarish tezligi, m min	50 gacha
	O'rnatilgan quvvat, kVt	50.2
	Gabarit o'lchami, mm	
	uzunligi	6920-20960
	Kengligi (idish diametriga	508-3080
	mos ravishda)	610- 4240
	urchuqlar orasidagi masofa, mm	130

Yigirish mashinasi texnik tavsifi

16-jadval

Ko'rsatkichlari	G35	K 45
Yigirilgan tola	Paxta	Paxta
Tola uzunligi, mm	60	60
Ipning chiziqli zichligi, teks	3,7-132	3,7-59
Nomer	7,5-270	17-271
Buramlar soni, m min	3000	200-3000
Umumiy cho'zish	80-120	80
Urchuqning tezligi,	25000	25000
Urchuqlar soni	1632	1200

Sektsiyadagi	48	48
Urchuqlar orasidagi masofa	70,75	70,75
Halqa diometri, mm	36-54	36-51
Naycha uzunligi, mm	180-250	180-250
O`rnatilgan quvvat, kVt	80	78
Gabarit o`lchami, mm		
uzunligi	63145	47500
Kengligi ajratuvchisiz	1062	1062
Ajratuvchi bilan	1340	1340
Balandligi	2170	2170
Kursatkichlari	G35	K 44

Italiyaning SAVIO firmasi turli rusmli bir necha modeldagi o`rash avtomatlarini ishlab chiqaradi. Bu o`rash avtomatlari bir necha yangi konstruktiv yechimlarni, elektron va avtomatik tizimlarni mujassamlashtirgan.

17-jadval

Savio ORION EI o`rash avtomati

Ipning nomeri	170 gacha
O`rash tezligi, m min	2200 gacha
Naychadagi ip o`ramasi o`lchami	65x310

O`ralgan bobina diametri, mm	300
O`ralgan bobina kengligi, mm	152
O`ralgan bobinada ip og`irligi, gr	3500
O`rash qurilmalari soni	64
Gabarit o`lchami, mm	
kengligi	1230
uzunligi	26205
balandligi	3020
O`rnatilgan quvvati, kVt	23,8
Mashina og`irligi, kg	5155-11580

TUAN-BL iplarni qo`shib o`rash mashinasi

Pishitilgan ip ishlab chiqarishda eng asosiy texnologik bosqichlardan biri iplarni qo`shib o`rash jarayonidir. Iplarni qo`shib o`rashdan maqsad ma`lum uzunlikdagi bir nechta iplarni bir xil taranglikda, pishitish jarayoni uchun qulay o`ramda o`rab berishdan iborat. Italiyaning FADIS firmasi TUAN turidagi turli tola va iplarni qo`shib o`rash mashinalarini ishlab chiqardi. Mashina komp yuterlashtirilgan bo`lib, unda o`rash tezligi hamda o`ram uzunligi avtomatik boshqariladi, uzilishlar va texnik nosozliklar vaqtida mashina avtomatik tarzda to`xtaydi. Taranglikni sozlovchi moslama bir vaqtning o`zida ipni yo`g`on va ingichka, tuguncha xosil bo`lgan qismida mashinani avtomatik to`xtatadi hamda ipdagi nuqsonlarni (neps) tozalaydi. Mashina uchtagacha yakka yoki qo`shilgan iplarni qo`shib o`rash imkoniyatiga ega.

Mashinaning texnik tavsifi

18-jadval

№	Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	Qiymati
1.	O`rash qurilmalari orasidagi masofa	mm	125-210
2.	O`rash qurilmalari soni, 1 ta sektsiyada jami	dona	6 60
3.	O`rash diametri	mm	150 gacha
4.	O`rnatilgan quvvat	kVt	9-21,5
5.	Ip o`ralgan (ta`minlanadigan) naycha o`lchami Diametri balandligi	mm	72 360
6.	O`rash tezligi	m/min	1100
7.	Qo`shishlar soni	dona	3
8.	Gabarit o`lchami Kengligi Balandligi uzunligi	mm	1620 3125 6770-24695

Pishitish mashinasi

Hozirgi kunda pishitilgan iplar ishlab chiqarishda hal etilishi lozim bo`lgan muammolar ko`p qirralidir. Bu muammolarni ijobiy hal etish uchun yangi texnologik jarayonlar va jihozlar yaratilmoqda. Urchuq bir marta aylanganda ipga ikkita buram beruvchi pishitish mashinalari jumlasida Savio (Italiya) firmasining TDS mashinasi ikki tomonlama bo`lib, tomonlar alohida dvigatellardan harakat oladi. Mashinada

urchuqlar soni 372 tagacha. Mashinani qo`shib o`ralgan bobina yoki ikkita bir o`lchamdagi bobinalardan ta`minlash mumkin. Ipni ichi bo`sh urchuqqa zapravka qilish havo yordamida pnevmatik sistemada amalga oshiriladi. Bu mashinalar asosan o`raladigan va chiqariladigan bobinalar o`lchamlari va urchuqlar soni bilan farqlanadi.

Ipning nomeri mashina rusumi va unda o`rnatiladigan urchuq o`lchamlariga muvofiq tanlanadi.

19-jadval

Urchuq bir marta aylanganda ipga ikkita buram beruvchi

TDS turkumida pishitish mashinasini texnik tavsifi

Tavsif ko`rsatkichlari	TDS turkumi uchun
Urchuqlar orasidagi masofa, mm	190 (228)
Rotor diski diametri, mm	145 (160)
Urchuqlar soni, max	372 (310)
Ipning nomeri	10x2-120x2
Ip o`raladigan babina o`rash kengligi, mm	152
Ip o`raladigan babina o`rash diametri, mm	285
Urchuqni aylanish soni, ayl/min	12000
uzunligi, mm	5345-37265
kengligi, mm	1050
balandligi, mm	2150
Mashina og`irligi, kg	2605-14323
O`rnatilgan quvvat, kVt	
urchuq soni 30-132	22
156-180	30
204-228	37
252-372	60

3. YIGIRISH REJASINI TUZISH

Yigiruv korxonasida yigiri tizimiga, xom ashyo sifatiga, ayniqsa, tolaning uzunligi va ingichkaligiga qarab, ma'lum yo'g'onlikdagi ip ishlab chiqarish uchun korxonada yigirish rejasi tuziladi. Bu rejada hamma mashinalardan olinadigan yarim tayyor maxsulotlar va ipning chiziqli zichliklari, qo'shilish soni, pilik va ipning pishitilish koeffitsienti, bir metrga to'g'ri keladigan buramlar soni, cho'zish kattaligi va mashinalarning mahsulot chiqarish tezliklari ko'rsatiladi. Yigirish rejasi qanchalik optimal tuzilsa, korxona shunchalik samarador ishlaydi.

Yigirish rejalarini tuzishni ip yigirish texnologik jarayonlarining borish tartibiga mos ravishda amalga oshiriladi. Bunda tayyorlov bo'limidagi tizimni saqlagan holda iplarni halqali usulda yigirish nazarda tutiladi.

3.1. Yigirish mahsulotlarining chiziqli zichligi va cho'zishni asoslash

1. Tarash mashinasi

- a) Texnik xarakteristikasi bo'yicha $T_p=4-20$ kteks;
- b) ITI tavsiyasi bo'yicha $T_p=3,6$ kteks; $E=100$;
- s) korxona tajribasida $T_p=4,5$ kteks; $E=115$;
- d) loyihada $T_p=5$ kteks; $E=115$ qabul qildim.

2. Pitalash birinchi o'tim

- a) Texnik xarakteristika bo'yicha $T_p=1,25-7,0$ kteks; $d=6-8$; $E=4-11,7$;
- b) ITI tavsiyasi bo'yicha $T_p=3,6$ kteks; $d=6$; $E=6$;
- s) korxona tajribasida $T_p=4,5$ kteks; $d=6$; $E=6$;
- d) Loyihada $T_p=5$ kteks; $d=6$; qabul qildim.

$$E = \frac{T_{\kappa} d}{T_q} = \frac{5000 \cdot 6}{5000} = 6.$$

3. Piltalash ikkinchi o'tim

- a) Texnik xarakteristika bo'yicha $T_p=1,258-7,0$ kteks; $d=6-8$; $E=4-11,6$;
- b) ITI tavsiyasi bo'yicha $T_p=3,6$ kteks; $d=6$; $E=6$;
- s) korxona tajribasida $T_p=4,5$ kteks; $d=6$; $E=6$;
- d) Loyihada $d_q=6$; $T_p=5$ kteks qabul qildim.

$$E = \frac{T_{\kappa} d}{T_q} = \frac{5000 \cdot 6}{5000} = 6.$$

4. Piliklash o'timi

- a) Texnik xarakteristika bo'yicha $T_p=170-1450$ teks; $E=4-20$;
- b) ITI tavsiyasi bo'yicha $T_p=500$ teks; $E=7,2$;
- s) korxona tajribasida $T_p=700$ teks; $E=6,43$;
- d) Loyihada $T_p=600$ teks qabul qildim

$$E = \frac{T_{\kappa} d}{T_q} = \frac{5000}{600} = 8,33.$$

5. Yigirish

- a) Texnik xarakteristika bo'yicha $T=3,7-59$ teks; $E=80$ gacha;
- b) ITI tavsiyasi bo'yicha $T_I=15-22$ teks; $E=33,3-22,7$;
- s) korxona tajribasida $T_p=20$ teks; $E=35$;
- d) loyihada ipni chiziqli zichligi $T_I=18,5$ teks qabul qildim

$$E = \frac{T_p d}{T_I} = \frac{600}{18,5} = 32,4$$

6. Qayta o'rash

- a) Texnik xarakteristika bo'yicha $T_i=5,9$ teksdan yuqori;
- b) korxona tajribasida $T_p=20$ teks;
- c) Loyihada qabul qildim $T=18,5$ teks.

7. Qo'shib o'rash

- a) Texnik xarakteristika bo'yicha $T_i=5,9$ teksdan yuqori;

c) Loyihada qabul qildim $T=18,5$ teks.

8. Pishitish mashinasida

a) Texnik xarakteristika bo'yicha $T_i=8,33 \times 2-100 \times 2$ teks;

c) Loyihada qabul qildim $T=18,5$ teks X 2.

3.2. Yarim tayyor mahsulotlarni pishitish darajasini hisoblash

Pishitish deb uzunlik birligiga to'g'ri keluvchi (yoki 1 metrga) buram soniga aytiladi va quyidagi formuladan hisoblab topiladi

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T}}$$

bu yerda: α - pishitish ko'effitsienti:

T - mahsulotning chiziqli zichligi.

Pishitish ko'effitsientlarini mahsulot chiziqli zichligiga, tolaning uzunligiga va ipning qo'llanish ko'lamiga qarab tanlanadi.

Pilikni 1 metridagi buram soni $\alpha = 7,77$ [13]

